



YURTIMIZDA YOSHLARNING MA'NAVIY MUHITIGA DAVLAT E'TIBORI.

Sattorova Raisa Xabibovna

Sirg'ali tibbiyot kolleji

Klinik fanlar kafedrası Yuqumli kasalliklar fani o'qituvchisi

Tel;+998903725664

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – bugungi murakkab va tahlikali zamonda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz farovonligini ta'minlash, yoshlarimizni milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik va yaratuvchilik ruhida tarbiyalashdir. So'nggi yillarda ma'naviyat, ma'rifat masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Shular haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *yoshlarga e'tibor, Yoshlar kelajagimiz, intellektual salohiyat, Yoshlar tayanchimiz, davlat qararlari.*

Xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib obro'-e'tiborga ega bo'lishi yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga, komil inson bo'lib voyaga yetishiga bevosita bog'liq. Shu bois, mamlakatimizda yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, intellektual salohiyatli etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida mamlakatimiz yoshlari uchun ulkan islohotlar olib borildi. Bu esa o'z navbatida shuni anglatadiki, Davlatda yoshlar qatlami eng muhim o'rinda ekanligini ko'rsatadi. Dunyoning istalgan mamlakatida yoshlarga bunday ulkan e'tibor qaratilmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, 2018 yilning 27 iyun kuni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan ““Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to'g'risida”gi farmoni bu borada olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Mazkur hujjatga muvofiq 2018 yil 1- iyuldan boshlab respublikamizning barcha tuman (shahar)larda “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi amalga oshirilishi hamda dasturdagi tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi, shuningdek, uning tuman va shahar filiallari tashkil etilishi belgilab qo'yildi [1]. Bu esa yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rnini topishga kelajakdagi g'oya va rejalarini amalga oshishiga zamin yaratdi. Prezidentimizning “ Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi[2]” – deb aytgan so'zlari yoshlarni diniy ekstremizm va terrorizm balosidan ogohlantirishimiz, ularni bunday yot

g'oyalari ta'siriga tushib qolmasliklari va bunday baloni oldini olish uchun qanday tizimli ijtimoiy profilaktik amaliy ishlarni amalga oshirish kerakligini davlat va jamoat tashkilotlari oldiga bir qator aniq vazifalar qilib belgilab berdilar. Bundan tashqari, Prezidentning joriy yil 19-martda Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ilgari surgan 5 ta tashabbusi yoshlarning hayotida yangi sahifani ochdi. Bir yilga ham yetmasdan tashabbuslar yuksak darajada targ'ib etildi va natijasi ham samara berganligi isbotlandi. Qisqa vaqt davomida, yoshlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyalarini o'stirish maqsadida Davlat miqyosidagi tadbir o'tkazildi. O'zbek yoshlarining jahon minbarlaridagi chiqishlari, olimpiadalar va turli-xil xalqaro konferensiyalardagi natijalari barchamizni quvontiradi.

Ana shu qatorda "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida " O'zbekiston Respublikasi Qonunini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Mazkur qonun Vatanimiz yoshlarini har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni aynan yangi bosqichga ko'tarilganligining yaqqol misoli bo'la oladi. Mazkur hujjatda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab qo'yildi:

- yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;
- yoshlarning intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi ruhida tarbiyalash, ularni turli zo'ravonlik, shafqatsizlik, yot g'oyalardan himoya qilish.

Mazkur qonunga to'liq amal qilish mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish kabi oliy maqsadga erishishda asos bo'ladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Hujjatning qabul qilinishiga asosiy sabab, yoshlarimizni to'g'ri tarbiyalab voyaga yetkazish va ularning kelajaklariga keng yo'l ochib berishdan iborat desak mubolag'a bo'lmaydi[3]. Xususan, qonunda yoshlarimiz ongiga Vatanga sadoqat, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho ma'naviy merosga yuksak hurmat tuyg'ularini shakllantirish, bor kuch va salohiyatini mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun qaratilgan. Yoshlar tafakkurining to'g'ri qurish bizning asosiy maqsadimiz ekan biz avvalo xolis reja va mukammal amaliyotni qo'llay bila olishimiz kerak. Zamonaviy hayotda yashayotgan ekanmiz jaholatga qarshi zamonaviy ma'rifat asosida javob qaytarishimiz lozim. Davlatimiz porloq kelajagi uchun qabul qilingan ustuvor isloxlarda

belgilangan vazifalarni to'liq ijrosini ta'minlash muhimdir. Qonunlar va vazifalarni bajarish esa davlatimizning barcha fuqarolarining muqaddas burchidir.

Yoshlarga oid ulkan islohotlarni hali 30 yoshga to'lmagan Davlat uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishi barchamizga ma'lum. Balki shuning uchun ham bugun O'zbekiston nomi dunyo e'tirofida ekanligi insonni ajablantirmaydi. Bunday mehnatlar tagida albatta kuchli matonat va sabr yotganligini ta'kidlashimiz lozimdir. E'tibor qanchalik qaratmaylik insonni o'yligacha soladigan holatlar taajublantiradi. Yoshlarning ongiga o'rnashib olgan ayrim salbiy illatlar barchamizni tashvishga soladi. Demakki bizning bugungi kundagi eng katta muammomiz salbiy illatlarga qarshi kurashish, yoshlarimiz balki xalqimizning ongida shunday ulkan ma'naviy kuch hosil qilinishi lozimki hech bir illat ushbu kuchni yenga olmasin. Jamiyatni to'g'ri yo'lga solish uchun eng avvalo illatlarni kirib kelishi va tarqalishini oldini olish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-430-sonli qarori, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son qarorlari bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Albatta, ta'lim muassasalarida barkamol avlodni tarbiyalashga doir ma'naviy-ma'rifiy va psixologik yo'nalishdagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda yuqoridagi qarorlarda belgilab berilgan vazifalar e'tiborga olinmoqda.

Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizimni yaratish, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yana-da kengaytirish, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish borasida bo'lim tashabbusi bilan qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, seminar va konferensiyalar tashkil etilmoqda.

"Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan 2021 - yilga mo'ljallangan Yoshlar dasturi", "2021- yilning 1- va 2-choragi davomida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini yana-da oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar doirasida ta'lim muassasalari o'rtasida "Eng namunali maktab", o'quvchilar o'rtasida "Vatan taraqqiyotiga mening qo'shgan hissam" tanlovlarni, o'quvchilar va pedagoglar o'rtasida "Uchinchi renesans - yoshlar nigohida" nomli loyihalar tanlovini o'tkazish bo'yicha Nizomlar ishlab chiqildi. Hozirda ushbu tanlovlarni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash yuzasidan tashkiliy-huquqiy asoslar ko'rib chiqilmoqda.

Bugungi O'zbekiston yoshlari rasmiyatchilikdan, kampaniyabozlikdan xoli, navqiron avlod bo'lib, demokratik yoshlar bo'lib yetishish haqida o'z xohish-

istaklarini bildirishmoqda va amalda joriy qilinishini talab qilishmoqda. Har bir yosh shunday demoqdaki, bo'ldi endi ortiq qo'l qovishtirib o'tirish yo'q, faqat va faqat mehnat, tirishqoqlik va g'alaba deya ich-ichlaridan hayqirishmoqda. Albatta hech kim bunga to'sqinlik qilmaydi. O'qish va yana o'qish haqida qayg'urish, salbiy illatlarni chetga surib tashlash tursin balki uloqtirib tashlaydigan yoshlar bo'lib o'sib va ulg'ayishimizga albatta ishonamiz. O'zbekiston rivojlangan mamlakat sifatida qayd etilishiga o'z hissamizni qo'sha olamiz deb har bir yosh qayg'urishiga bir kun kelib guvoh bo'lamiz. Bunday islohotlar natijasi shunday ulkan bo'ladiki bu islohot tarix darsliklarida hali ko'p bora tilga olinadi. Ma'naviyatga tahdid kelajakka tahdid, demakdir. O'zbekiston xalqi jahon taraqqiyotiga ulkan ulush qo'shgan Buyuk shaxslarning avlodidir[5]. Prezidentimizning biz yoshlarga qarata,- "Yoshlar bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, ezgu ishlarimizning davomchilaridir", degan so'zlari barchamizning kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, yuksak maqsadlar sari qanot bag'ishlaydi. Demakki, oldimizdagi ulkan yo'lda erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikni o'zi uchun or deb biladigan, aqliy kuchiga va ma'naviy ilmiga ishonib, tayanib yashaydigan haqiqiy komil yoshlarni o'stirish va tarbiyalash har birimizning eng oliy burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Yoshlar - kelajagimiz " Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi
 - a. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev farmoni. Toshkent-2018
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyun kuni "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizni sofliqini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan.
3. "Yoshlarga oid Davlat siyosati" to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining
 - a. qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilingan.
 - b. Senat tomonidan 2016 yil 24 avgustda ma'qullangan. Toshkent.
4. Ergashev N. "Ma'naviy tahdidlar ta'siri". uzhurriyat.uz. 2016.
5. образования
6. Шамшетова А.К. Курсантларнинг ўқиш фаолиятида психологик
7. билимларнинг аҳамияти
8. Джумашев А.Н. Значение спорта в социализации современной
9. молодежи



10. Qodirov J. Passionarlik milliy yaxlitlikni ta'minlash vositasi sifatida
11. Тураева Д.Р. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш муаммолари
12. Тураева С.Р. Ўрта Осиёда ёшларни темирчилик хунарига йўналтиришдаги кадрятлар
13. Носиров Ф.Ш., Носиров Ш.Ш. Китобхонлик ёшларни маънавиятга етакловчи кучдир
14. Мухтаров Б.М. Носируддин Самарқандий илмий меросининг ёшлар таълим-тарбиясидаги аҳамияти
15. Ташметов Т.Х. Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари
16. Алижанов А.Т. Ахборот хавфсизлигининг ёшлар онгига таъсири
17. Каракулов Ў.Э. Ёшларни барқарор, ижтимоий муносабатлар руҳида тарбиялашда толерантлик
18. тарбиялашда толерантлик